



Sardor BUTAYEV,

*Toshkent davlat transport universiteti tayanch doktoranti
E-mail: sardorunbutayev@gmail.com*

F.f.d., professor J.Durdiyevna taqrizi ostida

SA'DUDDIN TAFTAZONIY ILMIY MEROSINING TAHLILI XUSUSIDA

Annотatsiya

Taftazoniyning ilmiy merosi juda keng va ko'p qirrali bo'lib, o'zida islom falsafasi, kalom, mantiq, she'riyat, arab tili, geometriya va boshqa qator fanlar bo'yicha asarlarni qamrab oladi. Taftazoniy qirqdan ortiq kitob yozganligi ma'lum. Uning saqlanib qolgan hamda alohida ahamiyat kasb etgan eng muhim va yirik asarlaridan quyidagilarni ko'rsatish mumkin: "Tahzib al-mantiq wal-kalom" ("Mantiq va kalomga sayqal berish"), bizgacha Jaloliddin Davoniy va Kurdistoniylarning sharhlari orqali yetib kelgan; "Maqosid fi ilm al-kalom" yoki "Maqosid at-tolibin fi usul ad-din" ("Din asoslarini izlovchilarning maqsadlari"). Bulardan tashqari, "al-Mutavvol" ("Keng talqin"), "Muxtasar al-maoni" ("Qisqacha ma'nolar"), "al-Irshod al-hodiy" ("Yo'l boshlovchi rahbar") asarlari ma'lum.

Kalit so'zlar: Taftazoniy, al-Mutavvol, al-Irshod, aqoid, islom falsafasi, mantiq.

ON THE ANALYSIS OF THE SCIENTIFIC HERITAGE OF SA'DUDDIN TAFTAZANI

Annotation

Taftazani's scientific heritage is very extensive and multifaceted, encompassing works on Islamic philosophy, theology, logic, poetry, the Arabic language, geometry and a number of other disciplines. It is known that Taftazani wrote more than forty books. Among his most important and major works that have survived and are of particular importance are the following: "Tahzib al-mantiq wal-kalam" ("Glossary of Logic and the Word"), which has come down to us through the commentaries of Jalal al-Din Davani and Kurdistani; "Maqasid fi ilm al-kalam" or "Maqasid at-tolibin fi usul ad-din" ("The Goals of Seekers of the Foundations of Religion"). In addition to these, the works "al-Mutawwal" ("Broad Interpretation"), "Mukhtasar al-maoni" ("Brief Meanings"), "al-Irshad al-hadiyy" ("The Guide Who Leads the Way") are known.

Keywords: Taftazaniyy, al-Mutawwal, al-Irshad, aqeed, Islamic philosophy, logic.

КАНАЛИЗУ НАУЧНОГО НАСЛЕДИЯ СААДУДДИНА ТАФТАЗАНИ

Аннотация

Научное наследие Тафтазани весьма обширно и многогранно, охватывая труды по исламской философии, теологии, логике, поэзии, арабскому языку, геометрии и ряду других дисциплин. Известно, что Тафтазани написал более сорока книг. Среди его наиболее важных и крупных трудов, сохранившихся до наших дней и представляющих особую ценность, можно назвать следующие: «Тahзиб аль-мантик валь-калам» («Словарь логики и слова»), дошедший до нас через комментарии Джалаладдина Давани и Курдистана; «Макасид фи ильм аль-калам» или «Макасид ат-толибин фи усул ад-дин» («Цели ищущих основ религии»). Кроме того, известны труды «Аль-Мутавваль» («Обширное толкование»), «Мухтасар аль-маони» («Краткие смыслы»), «Аль-Иршад аль-хадий» («Руководитель, указывающий путь»).

Ключевые слова: Тафтазани, аль-Мутавваль, аль-Иршад, акыд, исламская философия, логика.

Kirish. Mutafakkir tafsir, fiqh, kalom, falsafa, nahv, balog'at va mantiq kabi sohalarni puxta o'zlashtirib, shu yo'nalishlarda ko'plab kitoblar tasnif qilgan. Sa'duddin Taftazoniy islom olamida eng yosh kitob yozgan olimlar safidan o'rin oladi. Zero, u o'n olti yoshidayoq "Sharh at-tasrif al-'Izzi" nomli asarni yozib tugatgan. Ma'lumotlarga qaraganda, uning ilmiy-ma'naviy merosiga oid asarlar soni qirqdan ortiqni tashkil etadi.

Uning "Sharh al-Maqosid" ("Maqsadlar sharhi") asari Qur'on ilmlari bo'yicha o'sha davrning haqiqiy qomusi sifatida zamonaviy olimlar tomonidan e'tirof etilmoqda. Bu asarlaridan tashqari, Taftazoniyning o'zidan avval o'tgan mutafakkirlar kitoblariga yozgan sharh va hoshiyalari ham bizgacha yetib kelgan. Ulardan eng mashhuri Najmiddin Nasafiyning "Aqoid" asariga yozilgan "Sharh al-Aqoid an-Nasafiya" bo'lib, mazkur sharh muallifning o'z qarashlarini keng qamrab olgan va keyinchalik besh asr davomida islom ilohiyoti bo'yicha me'yoriy darsliklardan biri sifatida xizmat qilgan.

Kotibiyning mantiqqa oid «ash-Shamsiya» risolasiga yozilgan «as-Sa'diya» nomli sharhi — XIII asr oxiri–XIV asr birinchi yarmida yashagan olimning muhim asarlaridan biridir. Samarqandda saqlanayotgan va qadimiy yunon olimi Evklidning parallel chiziqlar haqidagi postulatini isbotlashga bag'ishlangan «Risola fi zavoe al-musallas» («Uchburchak burchaklari haqida risola») asari esa uning ilmiy qiziqishlari juda keng bo'lganini ko'rsatadi. Taftazoniyning bir qancha asarlariga keyingi yirik olimlar tomonidan ko'plab sharhlar yozilgani ma'lum. Uning kalomga oid asarlari falsafiy mazmuni bilan ajralib turib, o'z davrida falsafa sohasida ham katta ahamiyat kasb etgan. Taftazoniy bu asarlarda ko'tarilgan masalalarni batafsil va chuqur yoritishga intilgan hamda ayrim masalalarda falsafiy nuqtai nazardan yangi talqinlar taklif qilgan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Sa'duddin Taftazoniy falsafiy merosi va ijtimoiy qarashlari turkum fan sohalari doirasida o'rganilgan. Jumladan, xorijlik tadqiqotchilardan Ye.Bertels, A.Кныш, A.Korben [1],

V.Madelunglar Taftazoniy hayoti va ilmiy merosi tarix va fan metodologiyasi; K.Brokkelman [2], E.Elder, P.Skreslet [3] va R.Skreslet [4], A.Sa'dilar [5] tomonidan ma'naviy-ma'rifiy jihatlarining yoritilishi mutafakkir qarashlarining ijtimoiy-falsafiy mohiyatini ochib berishda nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. Safvet bey Basagichning kolleksiyasi (Bratislava universiteti fondi)da saqlanayotgan qo'lyozmalar mavzuga oid muammoni tadqiq etishda nazariy manba vazifasini bajaradi.

MDH olimlaridan R.Safiullina [6], D.Shagavievlarning ilmiy izlanishlari hamda N.Mo'minzodaning «Sa'duddin Taftazoniy ilohiyotshunosligining mantiqiy asoslari» mavzusidagi din falsafasi yo'nalishidagi maxsus fundamental tadqiqoti Taftazoniy ma'naviy-ma'rifiy merosini qiyosiy tahlil etishda ilmiy asos bo'ladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolani yozishda tarixiylik, falsafiylik, tasniflash, komparaivistika va umumlashtirish usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Nahv ilmi (arab tili grammatikasi)ga oid:

Sharh at-tasrif al-izziy [7].

Bu asarning to'liq nomi "Sharh ul-Izziy fiy tasrif" dir. Tasrif ul-Izziy Azduddin Abdulvahob Ibrohim az-Zanjoniyning asarlaridan biridir. Taftazoniy bu asarga sharh yozgan bo'lib, bu sharhni "Sharh ul-Zanjoni" deb ham nomlagan. Mazkur asar Taftazoniyning ilk asari bo'lib, uni 16 yoshida yozib tugatgan. Taftazoniy bu asarni hijriy 738-yilda, sha'bon oyida tamomlagan. Bu asar Hindistonda "Sa'diyya" nomi bilan ham atalgan.

Sa'duddin Taftazoniy vafotidan keyin bu asarga juda ko'plab olimlar tomonidan hoshiyalar bitildi-ki, ulardab ba'zilarini yodga olmoqlilik maqsadga muvofiqdir: Suyutiy(vafoti hijriy 911-yil), Shamsuddin Muhammad Ali al-Halabiy(vafoti hijriy 933-yil), Nasiruddin Abu Abdulloh(vafoti hijriy 1041-yil), Muhammad Qosim al-G'oz(vafoti hijriy 918-yil) va boshqalar shular jumlasidandir.

Hozirgi kunda mazkur asar Turkiyaning "Sulaymoniya kutubxonasida" "Izziy Sharhi", "Sharh ul-Tasrif fiy Izziy" hamda "Tasrif sharhi" nomlarida saqlanib kelinmoqda. Mazkur kutubxonada bu asarning 58 yozma nusxasi mavjud bo'lib, ulardan 3 nusxasi "Izziy Sharhi", 1 nusxasi "Tasrif sharhi", 54 nusxasi esa "Sharh ul-Tasrif fiy Izziy" nomida saqlanib kelinmoqda.

Irshod al-Hodiy [8]

Taftazoniy mazkur asariga o'g'lining ismini bergan. Hodiy bu – o'g'ining ismidir. Mutafakkir mazkur kitobini hijriy 778-yilda Xorazmda tamomlagan. Shuningdek, hijriy 774-yilda tugatganligi haqida ham ma'lumotlar uchraydi.

Asar muqaddima va uch qismdan iboratdir. Taftazoniy ushbu asarda nahv hamda kalimalar haqida juda qimmatli ma'lumotlarni keltirib o'tadi. Birinchi qismda ism haqida, ikkinchi qismda fe'l haqida, uchinchi qismda esa harf haqida ma'lumotlar keltiradi-ki, biz bu ma'lumotlardan Taftazoniyning arab tili grammatikasi, lug'at ilmidan yetarli darajada bilimga ega ekanligini bilsak bo'ladi. Bu asarga ham juda ko'p olimlar sharh yozgan bo'lib, ular quyidagilardir: Fathulloh ash-Shirvoniy, Shayx Alouddin Aliy ul-Buxoriy, Alouddin Ali Muhammad al-Bistomi, Sharofiddin Ali ash-Sheroziy, Muhammad at-Tabriziy, Muhammad ash-Sharif va boshqa olimlarni keltirishimiz mumkin.

Hozirgi kunda mazkur asar Turkiyaning "Sulaymoniya" kutubxonasida "Risola fiy Nahv" nomi ostida saqlab kelinmoqda.

Balog'at ilmiga oid:

Sharh al-mutavval yoki Sharh at-talxis al-mutavval. Taftazoniy "Damashqning Voizi" nomi bilan mashhur bo'lgan Shayx Jaloliddin ibn Abdurrahmon Qazviniy Shofi'iyning "Talxis al-miftoh fil-ma'oniyy val-bayon" asariga sharh

yo'zganidir[8]. Mutafakkirning mazkur sharhi hijriy 747-yilda yoki 748-yilda Hirotda yozib tugatadi. "Talxis al-miftoh fil-ma'oniyy val-bayon" asariga Taftazoniydan boshqalar ham sharh yozgan bo'lib, ularning ichida Taftazoniyning sharhi alohida o'rin tutadi. Bu sharhlardan ba'zilarini qayd etib o'tamiz: al-Halhaliy(vafoti hijriy 745-yil), az-Zavjoni(vafoti hijriy 792-yil), ash-Shubki(vafoti hijriy 771-yil), Nazir ul-Jaysh al-Halabiy(vafoti hijriy 778-yil), Shamsiddin al-Qonaviy(vafoti hijriy 788-yil), Muhammad al-Qaysari(vafoti hijriy 761-yil) va boshqa ko'plab sharhlarni keltirishimiz mumkin.

Shuningdek, Taftazoniyning bu sharhiga ko'plab hoshiyalar bitilgan bo'lib, quyidagilarni keltirib o'tamiz: Sayyid Sharif al-Jurjoni (vafoti 816/1413-yil), Hasan Muhammad al-Fanariy (vafoti 886/1482), Muhammad Faromurz Mulla Hisrav (vafoti 885/1480), Abulqosim ibn Abu Bakr al-Lays Samarqandiy (vafoti 994/1586), Ahmad Yahyo Muhammad (vafoti 906/1501), Muslihuddin Muhammad al-Lariy (vafoti 979/1572), Alouddin Ali Muhammad al-Bistomi (vafoti 871/1467), Ahmad Abdulloh al-Kirimiy (vafoti 850/1447), Shamsiddin Muhammad ibn Ahmad al-Bistomi (vafoti 842/1439), Izuddin Muhammad ibn Abu Bakr vafoti(819/1417), Yahyon ibn Yusuf ash-Shiromiy (vafoti 833/1430), Hasan ibn Abdussomad ash-Shamsuniy (vafoti 891/1487), Nizomuddin Usmon al-Hitoyi (vafoti 917/1517) va shu kabi mualliflarni keltirib o'tishimiz mumkin. Ko'rib o'tganimizdek, hoshiylarning ko'p yozilganligi ham Taftazoniy sharhining ahamiyatidan dalolat berib turibdi.

Sa'duddin Taftazoniyning mazkur sharhi hozirgi kunda "Sulaymoniya" kutubxonasida "Mutavval", "Mutavval fiy sharh at-Talxis", "Sharh ul-Mutavval", "Hoshiya al-Mutavval" nomlari bilan qayt qilingan. Shuningdek, ushbu kutubxonada "Mutavval" nomida 70, "Mutavval fiy sharh at-Talxis" nomida 2, "Sharh ul-Mutavval" nomida 7, "Hoshiya al-Mutavval" nomida esa 1 yozma nusxasi mavjuddir.

Muxtasar al-ma'oniyy [10].

Bu sharh "Talxis al-miftoh" asariga bitilgan ikkinchi mashhur sharhining nomi bo'lib, u yana "Muxtasar sharh Talxis al-miftoh", "Muxtasar al-ma'oniyy", "Ixtisoru sharh at-Talxis", "Sharh ul-Muxtasar" nomlari bilan ham ma'lumdir. Taftazoniy Shayx Jaloliddin ibn Abdurrahmon Qazviniy Shofi'iyning "Talxis al-miftoh fil-ma'oniyy val-bayon" asariga sharh yozar ekan, bu asarni ham maydonga chiqardi. Va uni hijriy 756-yilda G'ijduvonda yozib tugatti.

Bu sharh asar ham xuddi "al-Mutavval" singari o'zining zamonasida ham, o'zidan keying davrlarda ham mashhur asarlar qatoridan joy oldi va unga juda ko'plab hoshiyalar bitildi. Ular jumlasiga quyidagilarni keltirishimiz mumkin: Nizomuddin Usmon al-Hitoyi, Abdulloh Shahobiddin al-pazdaviy (vafoti 1010/1602), Ibrohim ibn Ahmad Mulla Halabiy, Yusuf ibn Husayn al-Qirmashtiy (vafoti 906/1500), Hamiduddin al-Husayniy, Ahmad ibn Yahyo Muhammad (vafoti 916/1511), Muslihuddin Mustafo ibn Hishom ar-Rumi, Muhammad ibn Hatibzoda ar-Rumi (vafoti 901/1460), Shihobuddin Ahmad ibn Qosim al-Ibodi (vafoti 994/1586) nomlarini keltirib o'tishimiz mumkin.

Taftazoniyning mazkur sharhi hozirgi kunda "Sulaymoniya" kutubxonasida 77 yozma nusxada saqlab kelinmoqda. Bu nusxalar quyidagi nomlarda berilgandir: "Muxtasar fiy sharh at-talxis al-miftoh" nomkida 11 nusxa, "Muxtasar al-ma'oniyy" nomida 57 nusxa, "Sharh ul-Muxtasar at-Talxis al-miftoh" nomida 3 nusxa, "Sharh ul-Muxtasar at-Talxis al-ma'oniyy" nomida 3 nusxa, "Talxis ul-miftoh" nomida 3 nusxasi mavjuddir.

Sharh ul-Miftah ul-Ulum. Ushbu asar Alloma Sirojiddin Abu Ya'qub Yusuf ibn Abu Bakr Sakkokiyning "Kitob al-miftoh" risolasiga yozilgan sharhdir. Shuningdek bu sharh "Sharh al-qism as-solis min al-miftoh" nomida ham

mashhurdir. Alloma Sirojiddin Abu Ya'qub Yusuf ibn Abu Bakr Sakkokiyning mazkur asari uch qismdan iborat bo'lgan. Birinchi qism sarf, ikkinchi qism nahv, uchinchi qism esa ma'no va bayonlarga bag'ishlangan.

Taftazoniy aynan "Kitob al-miftoh"ning uchinchi qismiga sharh yozgan. Shuningdek, Taftazoniydan tashqari, bu asarga Qutbiddin ash-Sheroziy va Sayyid Sharif al-Jurjoni ham sharh yozgan va bu uch sharh eng mashhurlari hisoblanadi. Taftazoniy ushbu sharhni hijriy 787-yil yoki 789-yilda shavvol oyida Samarqandda yozib tugatadi.

Hozirgi kunda mazkur asarning "Sulaymoniya" kutubxonasida "Sharh al-qism as-solis min al-miftoh" nomida 9 nusxa, "Sharh ul-Miftoh" nomida esa 21 nusxasi saqlanib kelinmoqda.

Xulosa va takliflar. Umuman olganda, olim kalom ilmining tarixiy rivojlanishini umumlashtirib, uning asosiy bosqichlarini o'ziga xos ixcham tarzda yoritishga harakat

qilgan bo'lsa, ikkinchi tomondan esa, o'z vaqtida ushbu jarayonda falsafa fani, falsafiy yondashuvlarining ahamiyati tobora oshib borayotganligini ko'rsatgan.

Taftazoniy ko'rsatishicha, Islom doirasida turli diniy-siyosiy guruhlar (xorijiyalar, murji'iyalar, qadariylar, jabariylar) paydo bo'lishi, xalifalik hududida yashagan xalqlar bilan har tomonlama aloqalar rivojlanishi, ularning falsafiy va diniy an'analari bilan tanishish, islomiy qadriyatlarini nazariy, aqliy, falsafiy mantiqiy nuqtai nazardan asoslash va himoya qilish, islom qonunchiligi va uning qoidalarini rivojlantirishni ta'minlash uchun aqliy, falsafiy vositalardan foydalanishga intilish kalom vujudga kelishining asosiy sabablaridan biri bo'lib chiqdi. Albatta, Taftazoniy ishlatgan tegishli tarixiy va nazariy materiallar o'zidan oldin o'tgan olimlarning muallif tomonidan keng va chuqur umumlashtirilgan va o'zlashtirilgan merosiga tayanadi.

ADABIYOTLAR

1. Корбен А. История исламской философии. -М.: Прогресс-Традиция, 2010. –С.268.
2. Brockelmann C. Geschichte der Arabischen Litteratur. Leipzig. C.F.Amelangs Verlag, 1909. –P.207.
3. Skreslet P.Yo., Skreslet R. The literature of Islam... American Theological Library Association, 2006. –P.164
4. Skreslet P.Yo., Skreslet R. The literature of Islam... American Theological Library Association, 2006. –P.164
5. Са'ди 'А.М. Исламское вероучение. Толкование акыды «Ан-Насафи». -Казань: ДУМ~РТ, 2009. –С.2.
6. Сафиуллина Р. Арабская книга в духовной культуре татарского народа. -Казань: Алма-Лит, 2003. –С.214.
7. Sa'duddin Taftazoniy. Sharh al-maqosid. J. I. – B. 5. Ushbu asar Azduddin Abdulvahob Ibrohim az-Zanjoniyning "Zanjoniy" asariga yozilgan sharh bo'lib, alloma uni o'n olti yoshida 738/1338 yili yozgan. Asar Kanstantinoplda 1253/1837, Tehronda 1280/1884 (majmua tarkibida), Dehli shahrida Ahmad ibn Shoh Gulning "Miftah as-sa'oda" asari bilan birgalikda 1289/1872, 1295/1878, Qohira shahrida 1307/1889 yillarda nashr qilingan.
8. Sa'duddin Taftazoniy. Sharh al-Maqosid. J. I. – B. 8. Hoji Xalifani ta'kidlashicha, Taftazoniy ushbu asarni o'g'liga atab Xorazmda 774/1372 yili yozib tugatgan. Asarga Muhammad ibn Ali al-Jurjoni, Muhammad ibn Muhammad al-Buxoriylar sharh yozishgan.
9. Sa'duddin Taftazoniy ushbu asarini 1355-1356 yillar orasida G'ijduvonda yozib tugatgan. Ushbu asar Kalkutta shahrida 1228/1813 yili, Laknav shahrida 1231-1312/1816-1894 yillarda nashr qilingan.